

UO‘T: 633.511:631.572

G‘O‘ZADA ODDIY DURAGAYLASH USULIDA YARATILGAN TIZMALAR TASNIFI

Rasulov Soyibjon Tolibjonovich

*Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti Qishloq xo‘jalik
ekinlari seleksiyasi, urug‘chiligi va dorivor o‘simliklar yetishtirish
kafedrasi dotsenti, q.x.f.f.d. (PhD)..*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy nav va tizmalarni chatishtirish natijasida olingan duragay avlodlarini turli ekish sxemasida ekib o‘rganish asosida o‘rta tolali g‘o‘zaning tola hosildorligini oshiruvchi omillar, ya‘ni tola indeksi yuqori bo‘lgan hamda vilt kasalligiga bardoshli boshlang‘ich ashyolar yaratish haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: G‘o‘za, o‘simlik, ekish sxemasi, chatishtirish, duragaylar, tola chiqimi, tola mahsuldorligi, hosildorlik, tola indeksi, tezpishar.

КЛАССИФИКАЦИЯ ЛИНИЙ, СОЗДАНЫХ ПРОСТЫМ МЕТОДОМ ГИБРИДИЗАЦИИ ХЛОПКА

Расулов Сойибжон Толибжонович

*Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий,
доцент кафедры отбора сельскохозяйственных культур, семеноводства и
выращивания лекарственных растений, кандидат наук (PhD).*

Аннотация: В данной статье представлена информация о факторах, повышающих урожайность средневолокнистого хлопка, то есть о создании исходного материала с высоким индексом волокна и устойчивостью к увяданию, на основе изучения гибридного потомства, полученного в результате скрещивания местных сортов и линий в различных схемах посадки.

Ключевые слова: Хлопок, растение, схема посадки, гибридизация, гибриды, урожайность волокна, продуктивность волокна, урожайность, индекс волокна, раннеспелость.

CLASSIFICATION OF LINES CREATED BY SIMPLE HYBRIDIZATION METHOD IN COTTON

Rasulov Soyibjon Tolibjonovich

*Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies, Associate Professor,
Department of Agricultural Crop Selection, Seed Production and
Medicinal Plant Growing, (PhD).*

Annotation: This article provides information on the factors that increase the fiber yield of medium-fiber cotton, that is, the creation of starting materials with a high fiber index and resistance to wilt disease, based on the study of hybrid offspring obtained as a result of crossing local varieties and lines in different planting schemes.

Keywords: Cotton, plant, planting scheme, hybridization, hybrids, fiber yield, fiber productivity, yield, fiber index, early maturity.

Kirish. Paxta hosildorligini yanada oshirish omillaridan biri yangi, serhosil g'oz'ga navlarini ekish va dehqonchilik madaniyatini yuksaltirishdan iborat.

Paxta maydonlariga xo'jalik jihatidan qimmatli xususiyatlarga ega bo'lgan navlarni ekish - qo'shimcha mehnat va mablag' sarflamay, hosildorlikni oshirishga va paxta tolasining sifatini yaxshilashga imkon beradi.

Ilmiy ishning natijasi. Tadqiqotlarda ayrim belgilari yuqori bo'lgan G₃ duragaylarni oilalaridan ajratib olingan 4 tayangi tizma Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti "Immunologiya va sun'iy iqlim" laboratoriyasi va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining o'quv tajriba xo'jaligi maydonlarida nazorat ko'chatzorida andoza Andijon-35 navi bilan taqqoslab o'rganildi.

T-18 tizmasi F₄ (UzPITI-203 x T-19) kombinatsiyasidan olingan bo'lib, o'simlik bo'yi 118.6 sm, vegetatsiya davri 115.0 kunni tashkil qildi. Tola indeksi 8.2 gramm, tola chiqimi 39.2 foiz, 1000 dona chigit vazni 119.6 gramm va 100 dona chigit hajmi 35.5 sm³ ni tashkil etdi. Paxta hosildorligi 37,3 s/ga, tola

hosildorligi esa 14,6 s/ga bo‘lib, vilt bilan umumiy zararlanishi 6.4 foiz, kuchli darajada esa zararlanmaganligi kuzatildi.

T-20 tizmasi F₄ (UZPITI-203xS-2609) kombinatsiyasidan olingan bo‘lib, o‘simlik bo‘yi 112.8 sm, tezpisharlik belgisi 116.0 kun bo‘ldi. Ushbu tizmada tola indeksi 7.6 gramm, tola chiqimi 38.8 foiz, 1000 dona chigit vazni 120.4 gramm va 100 dona chigit hajmi 32.2 sm³ ni bo‘lganligi aniqlandi. Umumiy paxta hosildorligi 34.5 s/ga va tola hosildorligi 13.3 s/ga bo‘lganligi, vilt bilan umumiy zararlanishi 7.6 foiz, kuchli darajada 2.2 foiz zararlandi.

T-36 tizmasi F₄ (SultonxUZPITI-201) kombinatsiyasidan olingan bo‘lib, o‘simlik bo‘yi 109.2 sm, vegetatsiya davri 114 kunni tashkil qildi. Tola indeksi 6.8 gramm, tola chiqimi 38.6 foiz, 1000 dona chigit vazni 120.8 gramm va 100 dona chigit hajmi 31.3 sm³ ni tashkil etganligi kuzatildi. Paxta hosildorligi 32,8 s/ga, tola hosildorligi esa 12,6 s/ga bo‘lib, vilt bilan umumiy zararlanishi 6.0 foiz, kuchli darajada esa 3.6 foiz bo‘ldi.

T-55 tizmasi F₄ (Andijon-36xS-2609) kombinatsiyasidan olingan bo‘lib, o‘simlik bo‘yi 110.6 sm, tezpisharlik belgisi 117.0 kun bo‘ldi. Ushbu tizmada tola indeksi 7.2 gramm, tola chiqimi 37.0 foiz, 1000 dona chigit vazni 122.3 gramm va 100 dona chigit hajmi 34.8 sm³ ni bo‘lganligi aniqlandi. Umumiy paxta hosildorligi 35.0 s/ga va tola hosildorligi 12.6 s/ga bo‘lganligi, vilt bilan umumiy zararlanishi 7.3 foiz, kuchli darajada 2.0 foizni bo‘lganligi aniqlandi.

Andoza sifatida o‘rganilgan Andijon-35 navida o‘simlik bo‘yi o‘rtacha 111.3 sm, tezpisharligi 120 kun, tola indeksi 6.4 gramm va tola chiqimi 36.4 foizni tashkil etdi. 1000 dona chigit vazni belgisi 121.6 grammni va 100 dona chigit hajmi 29.4 sm³ ni tashkil etdi. Paxta hosildorligi andoza ushbu navda 29.6 s/ga, tola hosildorligi esa 10.9 s/gani tashkil etdi. Vilt bilan umumiy darajada zararlanishi 28.8 foiz kuchli darajada zararlanishi esa 10.6 foiz bo‘ldi.

Tadqiqot natijalaridan ko‘rinib turibdiki, bir necha yillik tajribalar natijasida yaratilgan yangi tizmalarda andoza naviga nisbatan 3-6 kungacha ertapisharligi, ko‘saklar ochilish sur‘atlari yuqori, tola indeksi 0.4-1.8 gramm, tola chiqimi 0.6-

2.8 foiz, 100 dona chigit hajmi 0.9-5.1 sm³, umumiy paxta hosildorligi 3.2-6.7 s/ga va tola hosildorligi 1.5-3.3 s/ga ustunligi namoyon bo'ldi.

Vilt kasalligiga bardoshliligi vilt zamburg'lari bilan tabiiy zararlantirilgan muhitda umumiy darajada zararlanish 3-4 barobar, kuchli darajada zararlanish esa 4-5 barobar yuqori darajada ekanligi aniqlandi.

Shunday qilib, o'rganilgan tizmalar orasidan barcha ko'rsatkichlar bo'yicha T-18 va T-20 tizmalari ajralib chiqdi hamda ushbu tizmalarning tola sifati 4-tipga to'liq javob berdi. Bir necha yillik tadqiqotlar natijasida ayrim qimmatli ho'jalik belgilari yuqori bo'lgan ushbu tizmalar 2023 yili Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot institutini kichik nav sinash ko'chatzoriga topshiriladi.

Tolaning sifat belgisi paxtachilikda eng muhim ahamiyatga ega. Yangi yaratilayotgan navlar va boshlang'ich ashyolarda tezpishar, hosildor va turli biotik va abiotik omillarga bardoshli bo'lishi bilan birga tola sifat ko'rsatkichlari jahon andoza talablariga javob berishi zarur. Bugungi kunda paxtachilik klasterlari va fermer xo'jaliklari tomonidan tolaning sifat ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tajribalarda G₄ duragaylarni oilalaridan ajratib olingan yangi tizmalarni tola sifat ko'rsatkichlari, ya'ni ip igrivchanlik koeffitsienti, tola uzunligi, mikroneyr, solishtirma uzilish kuchi va tola birxilligi kabi belgilar Respublika "Sifat" sertifikatlash markazida aniqlandi.

Xulosalar. Tolani sifat belgilari bo'yicha tahlil qilinganda T-18 tizmasida [F₄ (UzPITI-203xT-19)] ip igrivchanlik koeffitsienti 148, tola uzunligi 1.18 dyuym, mikroneyr ko'rsatkichi 4.4, solishtirma uzilish kuchi 36.8 g/teks va tola birxilligi 85.2 foizni tashkil etdi. T-20 tizmasida esa [F₄ (UzPITI-203xS-2609)] ip igrivchanlik koeffitsienti 138, tola uzunligi 1.14 dyuym, mikroneyr ko'rsatkichi 4.3, solishtirma uzilish kuchi 34.8 g/teks va tola bir xilligi 84.4 foiz bo'ldi.

T-36 tizmasida [F₄ (SultonxUzPITI-201)] ip igrivchanlik koeffitsienti 140, tola uzunligi 1.11 dyuym, mikroneyr ko'rsatkichi 4.4, solishtirma uzilish kuchi 35.2 g/teks va tola bir xilligi 83.2 foiz bo'lganligi, T-55 tizmasida esa [F₄ (Andijon-

36xS-2609)] ip igiruvchanlik koeffitsienti 144, tola uzunligi 1.12 dyuym, mikroneyr ko‘rsatkichi 4.3, solishtirma uzilish kuchi 36.3 g/teks va tola bir xilligi 84.0 foiz bo‘ldi. Andoza sifatida o‘rganilgan Andijon-35 navida ip igiruvchanlik koeffitsenti 136, tola uzunligi 1.10 dyuym, mikroneyr ko‘rsatkichi 4.5, solishtirma uzilish kuchi 32.2 g/teks va tola bir xilligi 80.6 foizni tashkil etdi. Tadqiqotlar natijasida bir necha yillik turli xil seleksion tanlashlar asosida yaratilgan yangi tizmalarda andoza naviga nisbatan tolani sifat ko‘rsatkichlari ijobiy bo‘lganligi aniqlandi.

O‘rganilgan tizmalarda tolani barcha sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha T-18 va T-20 tizmalari ijobiy holatda bo‘ldi, ya’ni IV-tip talablariga javob beradi. Ushbu tizmalar 2023 yili Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot institutini kichik nav sinash ko‘chatzoriga topshiriladi hamda navdorlik ko‘rsatkichi 99-100 foizga yetkazish maqsadida tadqiqotlar davom ettiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayev A.A., Saydaliyev H, Xolmurodov A.I. Turlararo duragaylashda g‘o‘zaning chatishishi va chigit tugishi qobiliyati //Paxtachilik jurnali – Toshkent: 1996. 2-son. 7-9-betlar.

2. Bahramov Q., Paxta hosildorligini oshirishda seleksiya va urug‘chilikning roli. Toshkent “O‘zbekiston” 1981. 19 bet.

3. G‘aniyev V., Isayev B., Goldberg G. – Paxta sifatini yaxshilash omillari. o‘zbekiston nashriyoti, Toshkent. 1977, 92 bet.

4. С.Т.Расулов, Х.Егамов, А.Рахимов, Ю.Хурматов. Изучение морфологических и хозяйственно-тсенных признаков новых сортов хлопчатника в условиях Андижанского вилоята. // “Актуальные проблемы современной науки” журнал. Москва, 2019 й. №1 (104), С. 117-119. (06.00.00; №1).